e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/gr6j1c45

HARBIY XIZMATCHILARNING MAFKURAVIY IMMUNITETI: EMPIRIK TADQIQOT NATIJALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Xudoyberdiyev Mashxurbek Mamirjonovich
O‘zbekiston Milliy universiteti, mustaqil ilmiy izlanuvchi.
e-mail: mashhurbekxudoyberdiyev7@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0007-7336-7435

Annotatsiya.
Maqolada harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immuniteti darajasini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot natijalari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot aralash metodlar strategiyasi asosida 271 nafar harbiy xizmatchi ishtirokida o‘tkazilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan olti blokli o‘lchov vositasining ishonchliligi yuqori darajada tasdiqlangan (Kronbax α = 0,835–0,853). Natijalar destruktiv mazmun bilan kontakt deyarli umumiy xarakterga ega bo‘lishiga qaramay (97,0 %), institutsional javob kanali cheklangan darajada ishlashini ko‘rsatdi. Mediasavodxonlik va mafkuraviy immunitet o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli, biroq o‘rtachadan past bog‘lanish aniqlandi ($r = 0,325$; $p < 0,001$). Xizmat toifasi bo‘yicha differensiatsiya farazi asosan rad etildi ($\eta^2 = 0,007–0,018$). Shu asosda tarbiyaviy ta’sirni differensiatsiyalash mezoni sifatida xizmat toifasi emas, balki shaxs darajasidagi mafkuraviy immunitet ko‘rsatkichi taklif etiladi. Ilmiy yangilik harbiy kontingent uchun maxsuslashtirilgan, validatsiyadan o‘tkazilgan o‘lchov vositasining ishlab chiqilishi va «himoya bo‘shlig‘i» holatining empirik tasdiqlanishidan iborat.

Kalit so‘zlar: kibermadaniyat, mafkuraviy immunitet, harbiy xizmatchi, destruktiv g‘oya, mediasavodxonlik, qadriyatlar barqarorligi, himoya bo‘shlig‘i, integral indeks, targ‘ibot texnologiyalari, empirik tadqiqot.

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЙ ИММУНИТЕТ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ЭМПИРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Худойбердиев Машхурбек Мамиржонович
Национальный университет Узбекистана, независимый исследователь.

Аннотация.
В статье с социально-философской точки зрения анализируются результаты эмпирического исследования, направленного на определение уровня идеологического иммунитета военнослужащих. Исследование проведено с участием 271 военнослужащего на основе стратегии смешанных методов. Подтверждена высокая надёжность разработанного автором измерительного инструмента, состоящего из шести блоков (альфа Кронбаха α = 0,835–0,853). Результаты показали, что, несмотря на практически повсеместный контакт с деструктивным контентом (97,0 %), институциональный канал реагирования функционирует в ограниченной степени. Между медиаграмотностью и идеологическим иммунитетом выявлена статистически значимая, однако ниже средней по силе связь ($r = 0,325$; $p < 0,001$). Гипотеза о дифференциации по категориям военной службы в основном была отвергнута ($\eta^2 = 0,007–0,018$). На этой основе в качестве критерия дифференциации воспитательного воздействия предлагается использовать не категорию военной службы, а индивидуальный показатель идеологического иммунитета. Научная новизна исследования заключается в разработке специализированного валидированного измерительного инструмента для военнослужащих и эмпирическом подтверждении состояния «пробела в защите».

Ключевые слова: киберкультура, идеологический иммунитет, военнослужащий, деструктивная идея, медиаграмотность, устойчивость ценностей, пробел в защите, интегральный индекс, пропагандистские технологии, эмпирическое исследование.

IDEOLOGICAL IMMUNITY OF MILITARY PERSONNEL: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF EMPIRICAL RESEARCH FINDINGS

Xudoyberdiyev Mashxurbek Mamirjonovich
National University of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.
The article presents a socio-philosophical analysis of the findings of an empirical study aimed at assessing the level of ideological immunity among military personnel. The study was conducted using a mixed-methods research strategy involving 271 military

personnel. The six-block measurement instrument developed by the author demonstrated high reliability (Cronbach's α = 0.835–0.853). The findings revealed that, despite nearly universal exposure to destructive content (97.0%), institutional response channels function only to a limited extent. A statistically significant but below-moderate correlation was identified between media literacy and ideological immunity ($r = 0.325$; $p < 0.001$). The hypothesis of differentiation by military service category was largely rejected ($\eta^2 = 0.007–0.018$). Accordingly, the study proposes using individual-level ideological immunity scores, rather than military service categories, as a criterion for differentiating educational interventions. The scientific novelty of the research lies in the development of a specialized, validated measurement instrument for military personnel and the empirical confirmation of a "protection gap."

Keywords: cyberculture, ideological immunity, military personnel, destructive ideology, media literacy, value stability, protection gap, composite index, propaganda technologies, empirical research.

Kirish. Kibermadaniyat muhitining shakllanishi jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan holda, mafkuraviy ta'sir kanallarini ham tubdan o'zgartirdi. Destruktiv g'oyalar endilikda faqat ommaviy axborot vositalari orqali emas, balki shaxsiylashtirilgan raqamli tavsiya tizimlari, yopiq messenjer guruhlari va ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy muloqot muhiti orqali ham tarqaladi. Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi ushbu muhitning faol ishtirokchisi bo'lgani holda, unga qaratilgan mafkuraviy himoya tizimi asosan real makonda — harbiy qism hududida, jamoaviy tadbirlar shaklida qurilgan. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish vazifasi davlat siyosati darajasida belgilangan [1], "O'zbekiston — 2030" strategiyasida esa raqamli muhitda milliy qadriyatlarni himoya qilish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan [2].

Muammoning ilmiy jihati quyidagidan iborat: tarbiyaviy ta'sir real makonda amalga oshiriladi, destruktiv ta'sir esa raqamli makonda yetib boradi. Mazkur nomuvofiqlikni "himoya bo'shlig'i" tushunchasi orqali ifodalash mumkin, biroq ushbu holat bugungi kunga qadar asosan nazariy mulohaza darajasida qolgan va o'lchanadigan ko'rsatkichlar orqali bayon etilmagan; mafkuraviy immunitet darajasini harbiy kontingent misolida aniqlash imkonini beradigan standartlashtirilgan vosita esa mavjud emas.

Tadqiqot obyekti — kibermadaniyat muhitida harbiy xizmatchilarni destruktiv g'oyalardan himoya qilish jarayoni. Tadqiqot predmeti — harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immuniteti darajasi, uning tarkibiy komponentlari hamda ularning xizmat toifasi bilan bog'liqligi. Maqolaning maqsadi — mafkuraviy immunitetni o'lchash vositasini ishlab chiqish, uning psixometrik ko'rsatkichlarini tekshirish va olingan natijalar asosida tarbiyaviy ta'sirni differensiatsiyalash mezonini empirik jihatdan asoslash. Shu maqsaddan kelib chiqib, uchta vazifa belgilandi: harbiy kontingentga moslashtirilgan o'lchov vositasini yaratish va validatsiyadan o'tkazish; destruktiv mazmun bilan kontakt tajribasi, media-savodxonlik va mafkuraviy immunitet o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash; xizmat toifasining differensiatsiya mezoni sifatidagi asosliligini statistik jihatdan tekshirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mafkuraviy ta'sirga qarshilik ko'rsatish muammosi xorijiy fanda bir necha nazariy an'ana doirasida o'rganilgan. U. Makgvayrning inokulyatsiya nazariyasi shaxsni qarshi dalillarning zaiflashtirilgan shakli bilan oldindan tanishtirish keyinchalik kuchli ta'sirga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini oshirishini asoslab berdi [3]. A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi xulq-atvor namunasining kuzatish va taqlid orqali o'zlashtirilishini ko'rsatdi — bu raqamli muhitdagi norasmiy yetakchilarning ta'sir mexanizmini tushuntiradi [4]. U. Potter media-savodxonlikni kognitiv ko'nikmalar majmui sifatida konseptuallashtirdi [5]; qadriyatlar tizimining tuzilishi esa M. Rokich [6] va Sh. Shvarts [7] ishlarida asoslangan va mazkur tadqiqotda qadriyat shkalasini qurish uchun nazariy asos bo'ldi.

O'zbekiston falsafa fanida milliy g'oya va mafkuraviy immunitet masalalarining nazariy asoslari Q. N. Nazarov tomonidan qadriyatlar tizimi kontekstida ishlab chiqilgan [8]. Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik-psixologik yo'llari M. X. Quronov ishlarida yoritilgan [9]. Bevosita harbiy soha bo'yicha mavzuga eng yaqin tadqiqot — Y. T. Xolikovning harbiy xizmatchilar mafkuraviy immunitetini kuchaytirishning ma'naviy-ma'rifiy omillariga bag'ishlangan dissertatsiyasi [10]. Kiberzo'ravonlik va kiberxavfsizlikni ta'minlashning mafkuraviy ahamiyati S. S. Usmonov tomonidan o'rganilgan [11].

Mavjud tadqiqotlar tahlili uchta bo'shliqni ko'rsatadi: mafkuraviy immunitet aksariyat ishlarda nazariy yoki normativ tushuncha sifatida qaralgan va uning darajasini o'lchash masalasi qo'yilmagan; harbiy kontingent uchun maxsuslashtirilgan, ishonchliligi tekshirilgan o'lchov vositasi ishlab chiqilmagan; kibermadaniyat muhitining o'ziga xos xususiyatlari alohida predmet sifatida ajratilmagan. Mazkur maqolaning o'ziga xosligi aynan shu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilganligidadir: unda mafkuraviy immunitet validatsiyadan o'tkazilgan vosita orqali o'lchanadi va natijalar targ'ibot texnologiyalarini loyihalash uchun mezon sifatida talqin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot aralash metodlar strategiyasining ketma-ket izohlovchi dizayni asosida qurilgan [12]: miqdoriy bosqich (anketa so'rovi) ko'rsatkichlarni o'lchashga, sifat bosqichi (chuqurlashtirilgan intervyu va fokus-guruh) esa aniqlangan qonuniyatlarning mazmuniy sabablarini ochishga xizmat qiladi. Uchta ishchi faraz tekshirildi. Makon uzilishi farazi: xizmatchining raqamli faolligi yuqori bo'lgani holda, mazkur faoliyat doirasidagi tarbiyaviy ta'sir minimal darajada qoladi. Kognitiv shartlilik farazi: media-savodxonlik darajasi bilan mafkuraviy immunitet o'rtasida ahamiyatli musbat bog'lanish mavjud. Differensiatsiya farazi: mafkuraviy immunitet ko'rsatkichlari xizmat toifasiga qarab ahamiyatli darajada

farqlanadi.

Tanlanma hajmi tasodifiy belgilanmagan, balki to‘rtta statistik protsedura talabidan kelib chiqib hisoblangan: dispersion tahlil uchun o‘rtacha effekt (f = 0,25) va 0,80 quvvat shartida 179 nafar [13]; korrelyatsion tahlil uchun 194 nafar; omilli tahlil uchun har bir bandga o‘n nafar respondent nisbatida 340 nafar; ulushlarni baholash uchun Koxran formulasi bo‘yicha 384 nafar [14]. Amalda 271 nafar respondent qamrab olindi, bu ±6,0 % xatolik chegarasiga mos keladi: dispersion va korrelyatsion tahlil uchun zarur minimal hajm ta’minlangan, omilli tahlil esa izlanuvchan tahlil sifatida keltiriladi. Qatlamlash mezoni sifatida xizmat toifasi olingan, qatlamlar esa proporsional emas, balki har bir qatlam uchun kamida 40 nafar respondentni qamrab olish tamoyili asosida taqsimlangan.

1-jadval. Tadqiqot tanlanmasining tuzilishi (N = 271)

Xizmat toifasi	Rejalashtirilgan (n)	Amaldagi (n)	Ulushi (%)
Muddatli xizmatchilar	140	63	23,2
Kontrakt asosidagi xizmatchilar	80	129	47,6
Ofitserlar tarkibi	60	31	11,4
Ma’naviy-ma’rifiy ish mutaxassislari	40	48	17,7
Jami	320	271	100,0

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan anketa oltita blokdan iborat. Birinchi va ikkinchi bloklar tavsifiy xarakterga ega (ijtimoiy-demografik ma’lumotlar va raqamli xulq-atvor ko‘rsatkichlari), uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi bloklar besh balli Likert shkalasi asosidagi o‘lchov shkalalarini tashkil etadi, oltinchi blok esa destruktiv mazmun bilan kontakt tajribasini qayd etadi. Uchta shkalada jami sakkizta band teskari yo‘naltirilgan bo‘lib, ular tahlildan oldin $X' = 6 - X$ formulasi bo‘yicha qayta kodlangan. Uchta shkala asosida integral mafkuraviy immunitet indeksi hisoblanadi: $IMI = 0{,}30 \times M(MS) + 0{,}30 \times M(QB) + 0{,}40 \times M(MI)$, bunda M — tegishli shkala bandlarining o‘rtacha bali. Vaznlar taqsimoti mafkuraviy immunitetning uch komponentli (kognitiv, aksiologik, xulqiy) tuzilishidan kelib chiqadi: immunitet shkalasi bevosita qarshilik ko‘rsatish salohiyatini o‘lchagani uchun eng katta vaznga ega. Vositaning ichki muvofiqligi Kronbax alfa koeffitsiyenti orqali baholandi [15]; talqin mezonlari sifatida 0,70–0,79 — qoniqarli, 0,80–0,89 — yaxshi, 0,90 va undan yuqori — juda yuqori daraja deb qabul qilindi [16].

2-jadval. O‘lchov vositasining psixometrik ko‘rsatkichlari

Shkala	Bandlar soni	Teskari bandlar	Kronbax α	Baho
Media-savodxonlik (MS)	10	3	0,852	yaxshi
Qadriyat barqarorligi (QB)	12	3	0,835	yaxshi
Mafkuraviy immunitet (MI)	12	2	0,853	yaxshi

Ma’lumotlarni qayta ishlash protokoli sakkiz bosqichdan iborat: sifat nazorati; teskari kodlash; tavsifiy statistika; taqsimot normalligini asimmetriya koeffitsiyentining standart xatoga nisbati orqali tekshirish ($|z| > 3{,}29$ bo‘lganda normallik rad etiladi) [17]; dispersiyalar tengligini Leven mezoni orqali tekshirish [18]; guruhlararo farqlarni baholash — shartlar bajarilganda bir omilli dispersion tahlil, shartlar buzilganda noparametrik Kruskal–Uollis mezoni [19]; bog‘lanishlarni Pirson va Spirmen koeffitsiyentlari orqali aniqlash; izlanuvchan omilli tahlil. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0{,}05$ deb qabul qilindi. Muhim metodologik shart sifatida har bir mezon uchun p qiymati bilan birga effekt hajmi (η^2, Koen d, r) keltirilishi va ahamiyatsiz natijalarning ham to‘liq bayon etilishi belgilandi, chunki statistik farqning aniqlanmagani ham ilmiy natija hisoblanadi. So‘rov ixtiyoriylik va to‘liq anonimlik tamoyillari asosida o‘tkazildi, to‘ldirilgan anketalar komandirlik tarkibiga taqdim etilmadi; anketada birorta ham real destruktiv da’vo yoki targ‘ibot matni keltirilmadi, ya’ni o‘lchov vositasining o‘zi ta’sir kanaliga aylanmasligi ta’minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vositaning ishonchliligi yuqori darajada tasdiqlandi: uchta shkala uchun Kronbax alfa koeffitsiyentlari 0,852; 0,835 va 0,853 ni tashkil etdi. Bandlar tahlili shkalalarni tuzatishni talab qilmadi — barcha 34 ta band uchun band–jami korrelyatsiyasi 0,375–0,698 oralig‘ida joylashdi va birorta band uchun ham “α band o‘chirilganda” qiymati umumiy alfadan yuqori chiqmadi, ya’ni vosita to‘liq holda validatsiyadan o‘tgan.

Tavsifiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar quyidagicha: media-savodxonlik — 3,741 (SD = 0,629); qadriyat barqarorligi — 3,407 (SD = 0,493); mafkuraviy immunitet — 3,418 (SD = 0,610); integral indeks — 3,512 (SD = 0,424). Uchta shkala bo‘yicha taqsimot chapga siljigan: media-savodxonlik ($z = -4{,}92$), mafkuraviy immunitet ($z = -4{,}33$) va integral indeks ($z = -3{,}51$) uchun normallik farazi rad etildi, qadriyat barqarorligi shkalasi esa normal taqsimotga yaqin qoldi ($z = 1{,}42$). Chapga siljish javoblarning yuqori ballar tomon to‘planganini bildiradi; siljish aynan o‘z-o‘zini baholashga asoslangan shkalalarda kuzatilgani uchun uning sababi ijtimoiy maqbullik tufayli javoblarning buzilishi bo‘lishi ehtimoli yuqori. Leven mezoni bo‘yicha to‘rtta shkalaning barchasida dispersiyalar tengligi sharti buzilmadi ($p = 0{,}334–0{,}664$), shu bois guruhlararo taqqoslash ham parametrik, ham noparametrik mezonlar bo‘yicha o‘tkazildi va ikkala natija birgalikda keltirildi.

Birinchi faraz qisman tasdiqlandi. Destruktiv mazmun bilan kontakt deyarli umumiy xarakterga ega: respondentlarning 97,0 foizi so‘nggi olti oyda shunday mazmunga duch kelgan. Kontakt turlari bo‘yicha eng ko‘p uchraganlari — davlat institutlariga qarshi chaqiriqlar (73,8 %), millatlararo adovatni qo‘zg‘atuvchi mazmun (71,2 %), Qurolli Kuchlarni obro‘sizlantirish (71,2 %) va sun’iy yaratilgan soxta materiallar (69,7 %).

3-jadval. Destruktiv mazmun bilan kontakt va unga munosabat (N = 271)

ISSN 3060-5059 (Online)

Ko‘rsatkich	Ulush (%)
So‘nggi olti oyda shubhali yoki destruktiv mazmunga duch kelgan	97,0
Duch kelganda kontentni o‘chirgan yoki bloklagan	50,2
Komandir yoki mutaxassisga xabar bergan	43,5
Batafsil o‘qib chiqqan	34,7
E’tibor bermay o‘tib ketgan	28,0
Platformaga shikoyat qilgan	25,1
Hamkasblari bilan muhokama qilgan	23,2
Tushuntirish ishlari kam o‘tkaziladi deb hisoblaydi	43,9

Natijalarning ijtimoiy-falsafiy talqini quyidagicha: institutsional javob kanali cheklangan darajada ishlaydi — duch kelganlarning atigi 43,5 foizi komandir yoki mutaxassisga xabar bergan, 28,0 foizi esa umuman e’tibor bermay o‘tib ketgan. Xizmatchi destruktiv mazmun bilan aksariyat hollarda yakka holda uchrashadi va unga individual tarzda javob beradi: eng ko‘p tarqalgan reaksiya — kontentni o‘chirish yoki bloklash (50,2 %) — shaxsiy, jamoaga bog‘liq bo‘lmagan harakatdir. Jamoaviy javob shakllari sezilarli darajada kam uchraydi (hamkasblar bilan muhokama — 23,2 %). Bu harbiy jamoaning himoya resurslari real makonda amal qilishini, xizmatchining raqamli faoliyati esa mazkur resurslar ta’sir doirasidan tashqarida qolishini, ya’ni “himoya bo‘shlig‘i” holatini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Ikkinchi faraz tasdiqlandi: media-savodxonlik va mafkuraviy immunitet o‘rtasidagi bog‘lanish statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ($r = 0,325$; $p < 0,001$). Uch shkalaning barchasi bir-biri bilan ahamiyatli darajada bog‘langan, biroq koeffitsiyentlar 0,255–0,325 oralig‘ida qoldi.

4-jadval. Shkalalar o‘rtasidagi korrelyatsiya (Pirson, N = 271)

Shkala	MS	QB	MI
Media-savodxonlik (MS)	1,000	0,256**	0,325**
Qadriyat barqarorligi (QB)	0,256**	1,000	0,255**
Mafkuraviy immunitet (MI)	0,325**	0,255**	1,000

*** — bog‘lanish p < 0,001 darajasida ahamiyatli.*

Ushbu natija bir vaqtning o‘zida ikki qoidani tasdiqlaydi: uchta komponent o‘zaro bog‘langan, ya’ni ularni yagona konstruksiyaning qismlari sifatida qarash asosli; ayni paytda ular bir xil narsani o‘lchamaydi — aks holda korrelyatsiya 0,80 dan yuqori bo‘lardi. Demak, mafkuraviy immunitetning uch komponentli tuzilmasi empirik jihatdan tasdiqlandi va integral indeks formulasidagi vazn taqsimoti asoslangan hisoblanadi. Bog‘lanish kuchining o‘rtachadan past ekanligi esa media-savodxonlik mafkuraviy immunitetning zaruriy, biroq yetarli sharti emasligini ko‘rsatadi: axborotni tahlil qila olish qobiliyati o‘z-o‘zicha destruktiv g‘oyalarga qarshilik ko‘rsatishni ta’minlamaydi — unga qadriyat mo‘ljallari va amaliy harakatga tayyorlik qo‘shilishi lozim. Bu qoida targ‘ibot texnologiyasini loyihalashda bevosita amaliy ahamiyatga ega.

Uchinchi faraz qisman rad etildi. To‘rtta ko‘rsatkichdan uchtasida — media-savodxonlik, mafkuraviy immunitet va integral indeksda — xizmat toifalari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi; effekt hajmi 0,007–0,018 oralig‘ida, ya’ni guruhga mansublik umumiy dispersiyaning ikki foizidan kamini tushuntiradi. Natija parametrik va noparametrik mezonlar bo‘yicha bir xil bo‘ldi, bu esa xulosaning barqarorligini oshiradi.

5-jadval. Xizmat toifalari bo‘yicha farqlarning statistik baholanishi

Shkala	Leven p	ANOVA F	p	η^2	Kruskal H	p
Media-savodxonlik	0,334	0,586	0,625	0,007	1,490	0,685
Qadriyat barqarorligi	0,479	2,674	0,048	0,029	9,507	0,023
Mafkuraviy immunitet	0,664	0,637	0,592	0,007	1,499	0,683
Integral indeks (IMI)	0,524	1,603	0,189	0,018	3,598	0,308

Bitta ko‘rsatkichda — qadriyat barqarorligi shkalasida — farq statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetdi (ANOVA: $F = 2,674$; $p = 0,048$; Kruskal–Uollis: $H = 9,507$; $p = 0,023$). Juftlararo taqqoslash Bonferroni tuzatishi bilan o‘tkazilganda, yagona ahamiyatli farq muddatli xizmatchilar ($M = 3,493$) va ma’naviy-ma’rifiy ish mutaxassislari ($M = 3,241$) o‘rtasida aniqlandi: farq 0,252 ball, tuzatilgan $p = 0,045$, Koen $d = 0,516$ (o‘rtacha effekt). Bu natija kutilganiga zid, chunki qadriyat barqarorligining eng past ko‘rsatkichi aynan qadriyat tarbiyasini kasbiy vazifa sifatida bajaruvchi toifada qayd etildi. Uchta mumkin bo‘lgan izoh mavjud: refleksiv tanqidiylik (kasbiy faoliyati qadriyat masalalari bilan bog‘liq shaxs anketadagi qat’iy bayonotlarga ehtiyotkorlik bilan javob beradi); kasbiy charchoq hamda ijtimoiy maqbullik tufayli javoblarning teskari yo‘nalishda buzilishi. Mavjud ma’lumotlar bu izohlarni bir-biridan ajratish imkonini bermaydi, shu bois natija yakuniy xulosa sifatida emas, balki keyingi tadqiqotlar uchun aniqlangan muammo sifatida qayd etiladi.

Shkala darajalarining taqsimoti chegara tanloviga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lib chiqdi. Nazariy chegaralar (past — 2,59 gacha; yuqori — 3,80 dan boshlab) qo‘llanilganda, media-savodxonlik shkalasida respondentlarning 61,6 foizi “yuqori” darajaga kirdi, bu esa shkalaning differensiatsiyalash qobiliyatini cheklaydi.

6-jadval. Shkala darajalarining taqsimoti nazariy chegara bo‘yicha (%)

Daraja	Media-savodxonlik	Qadriyat barqarorligi	Mafkuraviy immunitet	Integral (IMI)
Yuqori	61,6	30,3	39,1	22,1
O‘rta	32,8	66,8	54,2	73,4
Past	5,5	3,0	6,6	4,4

Shu bois chegaralarni empirik kalibrlash o‘tkazildi: 33- va 67-protsentillar asosida hisoblanganda media-savodxonlik bo‘yicha taqsimot 29,9 / 30,6 / 39,5 foizga o‘zgaradi, ya’ni uch guruh taqqoslanadigan hajmga ega bo‘ladi. Asosiy mezon sifatida nazariy chegara saqlab qolindi — u boshqa tadqiqotlar bilan qiyoslash imkonini beradi; empirik chegara esa nazorat varianti sifatida keltirildi.

Tarbiyaviy ish shakllariga munosabat quyidagicha taqsimlandi: interaktiv munozara va savol-javob — 33,2 %; amaliy mashg‘ulot (soxta xabarni birgalikda tahlil qilish) — 31,7 %; an’anaviy ma’ruza — 25,8 %; individual suhbat — 24,4 %; video va onlayn materiallar — 14,8 %; tengdoshlar muloqoti — 5,5 %. O‘tkazilgan tadbirlarning foydaliligi besh balli shkalada o‘rtacha 3,86 ball deb baholandi. Natija kommunikatsiya modelidagi uzilishni ko‘rsatadi: auditoriya tomonidan eng ko‘p tanlangan ikki shakl birgalikda 64,9 foizni tashkil etadi va ularning ikkalasi ham dialogik xarakterga ega, an’anaviy monologik ma’ruza esa uchinchi o‘rinda turadi. Tengdoshlar muloqotining eng past ko‘rsatkichi (5,5 %) esa gorizontal ta’sir kanalini joriy etish oldindan tayyorgarlikni talab qilishini bildiradi.

Natijalar tadqiqotning beshta metodologik cheklovi doirasida talqin qilinishi lozim. Birinchisi — o‘z-o‘zini baholashga asoslanganlik: ijtimoiy maqbullik tufayli javoblarning buzilishi ehtimoli harbiy muhitda oshadi [20], shu bois past darajali respondentlar ulushi haqiqiy ko‘rsatkichdan kam bo‘lishi mumkin. Ikkinchisi — umumiy metod tufayli yuzaga keladigan buzilish: barcha o‘zgaruvchilar bitta vosita orqali o‘lchangani uchun korrelyatsiya sun’iy ravishda yuqori chiqishi mumkin [21], shu sababli natijalar sabab-oqibat munosabati sifatida emas, balki birgalikda o‘zgarish sifatida talqin qilinadi. Uchinchisi — kesimli tadqiqot dizayni: immunitetning shakllanish dinamikasini kuzatish imkoni yo‘q. To‘rtinchisi — tanlanma qamrovi: harbiy ta’lim muassasasi kursantlari o‘rtasida so‘rov o‘tkazilmagan, ofitserlar qatlami esa eng kichik hajmga ega (n = 31). Beshinchisi — vositaning yangiligi: uning boshqa kontingentda barqaror ishlashini aniqlash uchun takroriy validatsiya zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan empirik tadqiqot quyidagi xulosalarga asos beradi.

1. Harbiy kontingent uchun maxsuslashtirilgan mafkuraviy immunitetni o‘lchash vositasi ishlab chiqildi va validatsiyadan o‘tkazildi: uchta shkalaning ichki muvofiqligi “yaxshi” darajada tasdiqlandi (α = 0,835–0,853), bandlar tahlili esa shkalalarni tuzatishni talab qilmadi. Bu natija tadqiqotning ilmiy yangiligini tashkil etadi, chunki ilgari bunday vosita mavjud emas edi.

2. “Himoya bo‘shlig‘i” holati empirik jihatdan tasdiqlandi: kontakt deyarli umumiy xarakterga ega (97,0 %), biroq xizmatchilarning 43,5 foizigina mutaxassisga murojaat qiladi, 28,0 foizi e’tibor bermay o‘tib ketadi; eng keng tarqalgan reaksiya individual xarakterga ega (50,2 %), jamoaviy javob shakllari esa ikki baravar kam uchraydi (23,2 %).

3. Mafkuraviy immunitetning uch komponentli tuzilmasi empirik asosga ega bo‘ldi: shkalalar o‘rtasidagi korrelyatsiya statistik jihatdan ahamiyatli (r = 0,255–0,325; p < 0,001), biroq 0,60 dan past, ya’ni komponentlar o‘zaro bog‘langan, lekin bir xil narsani o‘lchamaydi. Media-savodxonlik immunitetning zaruriy, biroq yetarli sharti emas.

4. Xizmat toifasi bo‘yicha differensiatsiya farazi asosan rad etildi (η^2 = 0,007–0,018; natija parametrik va noparametrik mezonlarda bir xil). Bundan kelib chiqadigan metodologik xulosa: tarbiyaviy ta’sirni xizmat toifasi bo‘yicha differensiatsiyalash empirik asosga ega emas. Differensiatsiya mezoni sifatida shaxs darajasidagi ko‘rsatkich — mafkuraviy immunitet darajasi qabul qilinishi lozim, xizmat toifasi esa mazmuniy emas, balki tashkiliy differensiatsiya asosi bo‘lib qoladi.

Yuqoridagi xulosalardan uchta amaliy taklif kelib chiqadi. Birinchidan, tarbiyaviy ta’sir dasturlari xizmat toifasiga emas, balki mafkuraviy immunitet darajasiga (past, o‘rta, yuqori) qarab tabaqalashtirilishi lozim; buning uchun mazkur maqolada taqdim etilgan vosita dastlabki diagnostika vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin. Ikkinchidan, dastur mazmuni faqat media-savodxonlikni oshirish bilan cheklanmasligi, balki qadriyat mo‘ljallari va amaliy harakatga tayyorlikni ham qamrab olishi kerak. Uchinchidan, raqamli makonda javob berish kanali shakllantirilishi zarur: hozirgi holatda xizmatchi destruktiv mazmunga yakka holda duch keladi, jamoaning himoya resursi esa ishga tushmaydi. Keyingi tadqiqotlar uchun ikki yo‘nalish ajratiladi: ma’naviy-ma’rifiy ish mutaxassislari guruhidagi kutilmagan natijani sifat usullari orqali tekshirish hamda kursantlarni qamrab olgan holda vositani takroriy validatsiyadan o‘tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori. – 2018-yil 4-avgust, PQ-3898-son. – URL: https://lex.uz/docs/-3854496. lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. – 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. – URL: https://lex.uz/docs/-6600413. 2030” strategiyasi to‘g‘risida
3. McGuire W. J. Inducing Resistance to Persuasion: Some Contemporary Approaches // Advances in Experimental Social Psychology. – 1964. – Vol. 1. – P. 191–229. – DOI: 10.1016/S0065-2601(08)60052-0. ScienceDirect
4. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – URL: WorldCat katalogi. WorldCat.org
5. Potter W. J. Theory of Media Literacy: A Cognitive Approach. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2004. – URL: Nashriyot sahifasi. sagepub.com

6. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – URL: WorldCat katalogi. WorldCat.org
7. Schwartz S. H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65. – DOI: 10.1016/S0065-2601(08)60281-6. ScienceDirect
8. Nazarov Q. N. Milliy qadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent, 2020. – 384 b.
9. Quronov M. X. Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy immunitet. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – 273 b.
10. Xolikov Y. T. O'zbekistonda harbiy xizmatchilar mafkuraviy immunitetini kuchaytirishning ma'naviy-ma'rifiy omillari: falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati: 09.00.08 – Ma'naviy tarbiya. – Toshkent, 2025. – URL: Avtoreferatning to'liq matni (PDF). api.ziyonet.uz
11. Usmonov S. S. Kiberzo'ravonlikka qarshi kiberxavfsizlikni ta'minlashning mafkuraviy ahamiyati: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi: 09.00.06 – G'oyalar tarixi va metodologiyasi. – Toshkent, 2026. – URL: OAKning himoya haqidagi rasmiy e'loni.
12. Creswell J. W., Plano Clark V. L. Designing and Conducting Mixed Methods Research. – 2nd ed. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2011. – URL: WorldCat katalogi. WorldCat.org
13. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. – 2nd ed. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988. – URL: Elektron nusxa (PDF). utstat.toronto.edu
14. Cochran W. G. Sampling Techniques. – 3rd ed. – New York: John Wiley & Sons, 1977. – URL: WorldCat katalogi. WorldCat.org
15. Cronbach L. J. Coefficient Alpha and the Internal Structure of Tests // Psychometrika. – 1951. – Vol. 16, № 3. – P. 297–334. – DOI: 10.1007/BF02310555. ets.org
16. Nunnally J. C., Bernstein I. H. Psychometric Theory. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 1994. – URL: WorldCat katalogi. WorldCat.org
17. Field A. Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics. – 5th ed. – London: SAGE Publications, 2018. – URL: Nashriyotning kitobga oid resurslari. WorldCat.org
18. Levene H. Robust Tests for Equality of Variances // Contributions to Probability and Statistics: Essays in Honor of Harold Hotelling / ed. by I. Olkin et al. – Stanford, CA: Stanford University Press, 1960. – P. 278–292. – URL: Asarga havola berilgan metodik sahifa.
Izoh: bu bobning to'liq matni emas, uning bibliografik ma'lumoti keltirilgan sahifa. search.r-project.org
19. Kruskal W. H., Wallis W. A. Use of Ranks in One-Criterion Variance Analysis // Journal of the American Statistical Association. – 1952. – Vol. 47, № 260. – P. 583–621. – DOI: 10.1080/01621459.1952.10483441. tandfonline.com
20. Paulhus D. L. Measurement and Control of Response Bias // Measures of Personality and Social Psychological Attitudes / ed. by J. P. Robinson, P. R. Shaver, L. S. Wrightsman. – San Diego: Academic Press, 1991. – P. 17–59. – DOI: 10.1016/B978-0-12-590241-0.50006-X. ScienceOpen
21. Podsakoff P. M., MacKenzie S. B., Lee J.-Y., Podsakoff N. P. Common Method Biases in Behavioral Research: A Critical Review of the Literature and Recommended Remedies // Journal of Applied Psychology. – 2003. – Vol. 88, № 5. – P. 879–903. – DOI: 10.1037/0021-9010.88.5.879. PubMed